Foyda bozor mahsuli sifatida tarmoqlararo pul mablag'larini taqsimlash vazifasini bajarib, ishlab chiqarishning eng progressiv ko'p mulkchilikka moslashgan tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi.

Shu munosabat bilan korxonada foydasining bir qismini davlat budgetiga o'tkazish bozor iqtisodiyoti sharoitlarini ta'minlashda muhimdir. Ya'ni o'z-o'zini pul bilan ta'minlash sharoitida yuridik shaxslar o'z mablag'lari manbalari va jalb qilingan mablag'lar evaziga fan-texnikani, ishlab chiqarishni va ijtimoiy sohani rivojlantirishni ta'minlashlari, o'z xo'jalik faoliyatining natijalari hamda mahsulot yetkazib beruvchilar va iste'molchilar, budget va banklar oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun foydani qo'lga kiritishi kerak.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada iqtisodchi olimlarining soliq munosabatlarini tartibga solish, korxonalarda foydani shakllantirish va ishlatish yo'nalishlari, foyda solig'i va uni hisoblash metodologiyasiga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Foyda moddiy ishlab chiqarish mahsuli bo'lib, u o'zining maxsus shaklini muomala bosqichida mahsulotni realizatsiya qilish jarayonida namoyon qiladi va realizatsiya qilingan mahsulotning ulgurji bahosi bilan uning tannarxi o'rtasidagi farq sifatida ko'zga tashlanadi. Agar maxsus normativ hujjatlarda o'zgacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, haqiqatda foydani shakllantirish (korxonalar xususiyatlarini inobatga olgan holda) juda murakkab jarayonlardan biri bo'lib hisoblanadi. Foydani aniqlashda befarqlik, sovuqqonlik bilan qarash va ilmiy-nazariy jihatdan asoslanmagan holda unga yondashish avvalo iqtisodiyot taraqqiyotiga, qolaversa bozor iqtisodiyoti munosabatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini tug'dirmaydi. Har qanday soliqning manbai kabi foydaning manbai ham yalpi ijtimoiy mahsuldir. Ammo mavjud soliq xillaridan farqli o'laroq, foyda o'zgaruvchan miqdordir, narx erkin bo'lgan holda u barcha realizatsiya bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olingan daromadlarni shu operatsiyalar bo'yicha qilingan sarf-xarajatlar chegirilishidan qolgan qismi yig'indisiga bog'liq bo'ladi. Foydaning asosiy qismi korxonada ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi, uning boshqa bir qismi soliq to'lovi orqali davlat budjetiga kelib tushadi.

Foydani o'rganish jarayonida diqqatni shunga qaratish lozimki, foydaning bir qator ko'rinishlari mavjud: iqtisodiy foyda, buxgalteriya foydasi, yalpi foyda, soliq to'langunga qadar foyda, sof foyda va boshqalar<sup>[17]</sup>.

Korxonada pul daromadlaridan barcha xarajatlar chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismi foyda deb yuritiladi. Ayrim adabiyotlarda bu iqtisodiy foyda deb ham yuritiladi<sup>[18]</sup>.

Iqtisodiy foyda umumiy pul tushumidan barcha ichki va tashqi xarajatlar, shuningdek, meyordagi foydani chegirib tashlash orqali aniqlanadi<sup>[18]</sup>.

Buxgalteriya (balans) foydasi – korxonaning barcha xo'jalik operatsiyalari hisobi va buxgalteriya balansini moddalarini baholash asosida hisobot davrida paydo bo'ladigan oxirgi moliyaviy natijadir.

Buxgalteriya foydasi sotilgan mahsulot uchun tushgan umumiy pul summasidan ishlab chiqarishning tashqi xarajatlarini chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi<sup>[18]</sup>. Shu munosabat bilan iqtisodiy foydaga nisbatan buxgalteriya foydasi korxonada ichki xarajatlarga ko'proqdir.

Yalpi foyda – tovarlarni sotish (xizmatlarni ko'rsatish, ishlarni bajarish) va ularning tannarxi o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Soliq to'langunga qadar foyda – korxonada asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatidan olingan daromadlar va amalga oshirilgan xarajatlar (foyda solig'i va boshqa soliqlardan tashqari) o'rtasidagi farq hisoblanadi. Foyda solig'i va boshqa soliqlar foyda solig'i obyektiga bo'lganligi sababli uning nomlanishida aynan shu soliqlar nazarda tutilgan.

Sof foyda – korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati oxirgi moliyaviy natijasidir. Foydadan amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq, foyda solig'i olingandan so'ng xo'jalik subyekti ixtiyorida sof foyda vujudga kelib, uni korxonada o'z imkoniyati va xohishiga binoan taqsimlaydi.

Agar korxonada aksiyadorlik jamiyat bo'lsa aksiyadorlarga dividendlar taqsimlaydi, unitar korxonada bo'lsa, har xil homiylik va xayriya ishlarini amalga oshirish mumkin bo'lib, bu ularning moliyaviy siyosatiga bevosita bog'liq xususiyatlar majmuasidir.

Foydaning doimiy qo'lga kiritilishi mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan shu mahsulotni sotib oluvchilar o'rtasidagi bozor moliyaviy munosabatlariga bog'liqdir. Ishlab chiqarilgan va shartnomalar asosida sotilgan mahsulotlar xalq iste'mol tovarlari, ularning miqdori, sifati, assortimentiga ko'ra to'langan haq ushbu xalq iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarining qondirilmaganligidan dalolat beradi. Teskari hollarda esa, ya'ni xalq iste'mol tovarlari o'z iste'molchilari tomonidan qabul qilinmasa (sifatli emasligi, assortiment buzilganligi tufayli) yoki sotib olinmasa, unda bir tomondan pul mablag'larining doiraviy aylanishi ta'minlanmay qolsa, ikkinchi tomondan foyda qo'lga kiritilmaydi. Natijada korxonada yaratilgan qiymatning iste'molchilari tomonidan e'tirof qilinishi inqirozga, iste'mol tovarlarining defitsitligiga va inflyatsiyaning o'sishiga keng yo'l ochib beradi. Buning oqibatida bozor iqtisodiyoti taraqqiyotiga to'sqinlik qilinishi uchun imkoniyat yaratiladi.

Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar uchun foyda realizatsiya qilingan tovarlarning sotib olingan va sotilgan qiymati o'rtasidagi (davr oxiridagi va davr boshidagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi) farqqa tengdir<sup>[19]</sup>. Iqtisodiy adabiyotlarda ayrim guruh olim va mutaxassislar bu sohadagi korxonalar foydasining haqiqiy manbasi moddiy ne'matlar ishlab chiqarish sohasida olingan foydaning bir qismi narxlar orqali berilishi va shu foyda korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini to'liq qoplab foydani yuzaga keltiradi degan tushunchalar orqali targ'ibot qilinsa, ikkinchi bir guruh olim va mutaxassislar esa savdo va xizmat ko'rsatish sohasiga ishlab



chiqarish korxonalaridan o'tkazib berilgan foyda muomala (ishlab chiqarish) harakatlarni qoplay olmasligi, qolaversa shu soha xodimlarining unumli mehnati evaziga ijtimoiy qiymat yaratiladi va u ishlab chiqarish korxonalaridan o'tkazilgan foyda bilan birgalikda yalpi foydani tashkil etadi, ushbu yalpi foyda barcha xarajatlarni qoplash va sof foydani qo'lga kiritish imkoniyatini yaratadi degan fikrlarni bayon etganlar. Lekin bunday fikr-mulohazalar foydaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini, uni umumlashtiruvchi voqelik ko'rsatkichi sifatida shakllantirib berishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida iqtisodiyotni boshqarish vositasi sifatida foydani shakllantirish va taqsimlash, moliyaviy resurslarni jalb qilish, umuman olganda investitsiyalarni, xususan, korxonada darajasida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishni amalga oshirish bo'yicha katta tajriba egallandi. Foyda harakati majburiy to'lovlar, jumladan foyda solig'idan tarkib topgan. U sezilarli darajada turli hisob-kitoblarda korxonalarining imkoniyatlarini kengaytiradi. Hozirgi kunda jamiyatda foydani taqsimlash, asosiy kapital obyektlarini kengaytirish, rekonstruksiya va texnologik qayta qurollantirish, asbob-uskunalarni modernizatsiyalash va mavjud quvvatlarni oshirish va boshqa yo'llar bilan moliyaviy resurslarni jalb qilishni kuchaytirishni taqozo etuvchi jarayonlar ro'y bermoqda. Bu xarajatlarga qisqa va uzoq muddatli xarakterga ega va katta moliyaviy mablag'larni talab qiladi. Shuning uchun foydani shakllantirish va taqsimlash nafaqat korxonalar joriy ehtiyojlarini moliyalashtirishning muhim shakli, shu bilan birga, turli darajadagi budjetlar xarajatlarini qoplash vositasi ham hisoblanadi. Shu boisdan foydaga erishish uchun uning tavsifi, shakllantirish va taqsimlash sharoitlari, foyda solig'i orqali tartibga solish mexanizmi o'ta diqqat bilan ishlab chiqilishi lozim.

Shuning uchun xo'jalik subyektlarini soliqqa tortishning muhim muammolaridan biri foyda va soliq stavkasi o'rtasidagi aloqani ta'minlash hisoblanadi. Nazariy qarashlarda bu muammo soliq haqidagi ko'pgina fan namoyondalari diqqatini o'ziga qaratgan. Shuni ham ta'kidlash lozimki, ushbu muammo ham nazariyada, ham xo'jalik subyektlari amaliyotida ham nafaqat foydani shakllantirish va taqsimlash zaruriyatini, shu bilan birga uni soliqqa tortishni ham dolzarb qilib qo'yadi.

Aynan oxirgi masalaga biz asosiy diqqatni foyda solig'i tarkibini asoslashga qaratmoqchimiz. Bu korxonada samaradorligiga foyda solig'ining ta'sir qilish mexanizmini izchil tahlil qilish, shuningdek, yalpi daromadga emas, aynan foyda solig'ini amal qilishi obyektini hal qiluvchi sof foydasi masalasiga javob qidirishni prinsipial ahamiyatga ega qilib qo'yadi.

Mazkur savolga javob topishda ayrim mualliflar foyda nafaqat ishlab chiqarish maqsadida, shu bilan birga, alohida korxonalar faoliyatining maqsadi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Bozor iqtisodiyoti foydani "foyda solig'i" nomi ostida umumiy soliqqa tortishda uni soliq obyektiga kiritish uchun bosh sabab hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti keyingi soliqqa tortish obyektiga qo'shilishida foyda keltiradigan shunday jamiyat ehtiyojlarini tan oladi. Shu boisdan korxonaning bu qarorga intilishi uning foyda olishga intilishi bilan izohlanadi.

Kuchli raqobat sharoitida foyda olish va foyda solig'ini budjetga to'lash uchun tadbirkorlar innovatsion rivojlanishni oshiradi, foydaning nisbiy va absolyut o'sishini ta'minlashda xarajatlarni imkon doirasida qisqartiradi.

Bu fikr mantiqiy ko'rinadi. Chunki muammoning bunday qo'yilishi quyidagi samaraga ega bo'lgan ikki fikrni keltirib chiqaradi: korxonada va budjet o'rtasidagi o'zaro munosabat hamda korxonada foydasi va samaradorligi. Aynan bu ikki fikrning birlashishi "foyda solig'i" terminini va uning negizida soliq obyektini sof ko'rinishda yuzaga kelishiga asosiy sababi bo'lib hisoblanadi.

Albatta, har qanday qiymat ko'rsatkichi sifatida foyda ham va uning tarkibi sifatida sof foyda soliqqa tortish obyektini sifatida yuzaga kelgan bo'lib, u ma'lum bir moddiy ne'matlarning yig'indisi harakatini aks ettira boshlandi. Uning hajmi, foydaliligi bevosita sof foyda chegarasi soliq to'lovchilar tomonidan o'zboshimchalik bilan belgilanishi mumkin emas. O'zining obyektiv xususiyatiga ko'ra, sof foyda soliqqa tortish obyektini va korxonada faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichi sifatida soliq munosabatlari maydonga chiqdi.

Foydaning bu tarkibida korxonaning muhim ko'rsatkichlari sifatida uning samaradorligi, to'lov qobilligi va raqobatbardoshligi hisoblanadi. Sof foyda soliqqa tortish obyektini doirasida amal qilishi mutanosiblik o'lchovi chora-tadbirlarini ham, qo'shimcha qiymatning o'lchovini ham ahamiyatini yo'qotmaydi. Foydaning ushbu mohiyati qo'shimcha qiymatni ifodalash shakli sifatida uning tabiatidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, foyda keng ma'noda o'zining shakllantirish, taqsimlash va "foyda solig'i" ko'rinishida soliq munosabatlarida ishtirok etish xususiyatlari orqali barcha xarajatlarga ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish natijalari sifatida to'liq o'zida sintez qiladi hamda soliq to'lovchilar va barcha darajadagi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligini o'lchash imkonini beruvchi soliqqa tortish obyektini ko'rinishida ko'rinadi.

Bu foyda solig'ining muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, uni korxonalar soliqqa tortish obyektining ko'rsatkichlaridan biriga aylantiradi. Albatta, korxonada uchun sof foyda soliqqa tortishning yagona obyektini va ular samaradorligini har tomonlama qamrab oluvchi mezonga aylanishini taqozo qilmaydi. Iqtisodiy islohotlashtirish sharoitida uning roli va imkoniyatlari sezilarli darajada o'zgarishi mumkin. Shuningdek, sof foyda doirasida u soliq solish obyektining yagona o'lchov birligi – foyda solig'ining xususiyatlariga ega emas. Bu haqda keyingi paragraflarda batafsil bayon etish maqsadga muvofiq deb topildi.



Shuni ham aytib o'tish lozimki, har qanday iqtisodiy voqelik bu borada soliq obyekt sifatida umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lishligi mumkin, buning uchun ular avvalo iqtisodiy kategoriyalarni taqsimot jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar harakati bilan uzviy bog'liqligini bir tomondan, jismoniy va yuridik shaxslar bilan davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli muvofiqligi ikkinchi tomondan ta'minlab bera olishi lozim bo'ladi.

Bugungi kunda foyda ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich sifatida ham namoyon bo'lmoqda. To'g'ri, foyda o'zining bu mohiyati bo'yicha turli manfaatlarni hal etish ustunligi bilan ajralib turadi. Lekin korxonalar (ayniqsa, foydasi soliqqa tortilmaydiganlar) o'z manfaatlari bilan muvofiqligini ta'minlab bera olsalar, unda ularning foydasini davlat budjeti daromadlarini tashkil etuvchi manbalar bilan teng xususiyatga ega ekanligidan xulosa chiqarish mumkin, chunki korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini nomarkazlashtirilgan yo'llar bilan qondirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. YA'ni ishlab chiqarish korxonalarini moddiy rag'batlantirish, korxonalarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti uchun foydadan mablag'lar ajratib berish va h.k.lar nazarda tutilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, foydadan shunday bir ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich sifatida foydalanishlari lozimki, bu ko'rsatkich nimaiki jamiyat manfaatlariga javob bersa (davlat budjetining taqsimoti orqali) shu narsa korxonalar va ularning xodimlari manfaatlariga yoki nomarkazlashtirilgan mablag'larni foydadan ajratiladigan qismiga xos bo'lishi kerak <sup>[20]</sup>. Odatda, taraqqiy etgan mamlakatlarda korxonalar va ularning xodimlari o'z ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini budjetdan ajratmalar hisobidan qondirishdan ko'ra nomarkazlashtirilgan yo'l orqali, ya'ni foydaning bir qismini shu manfaatlarga sarflanishi ko'proq afzalliklarga ega deb kelinmoqda <sup>[21-23]</sup>. Darhaqiqat, bu shundaydir. Foydaning bir qismini soliq shaklida budjetga o'tkazilishi va korxonalar manfaatlarini qondirish maqsadida yana o'sha ajratmalar atrofida mablag'larni olish, sarflash juda ko'p qiyinchiliklar va ziddiyatlarni keltirib chiqarishga sabab bo'lmoqda. Lekin bunday hamma foyda nomarkazlashtirilgan holda taqsimlanishi zarur degan fikrni keltirib chiqarmaydi, ammo soliq stavkalari orqali tushumlarni har ikkala manfaatlarni inobatga olgan holda tartiblashtirilib turilishini taqozo etadi.

Buni amalga oshirish uchun bozor iqtisodiyoti bosqichma-bosqich, talab darajasidagi iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi muhim tashkillashtirib berish, professional soliq xodimlarining tayyorlanish yo'llarida olib borilayotgan va hayotga tatbiq etilayotgan chora-tadbirlarning majmuiga e'tiborni qaratish lozim. Ushbu vaziyatda foyda kategoriyasini, davlat budjeti xarajatlar harakatini korxonalar foyda taqsimoti bilan o'zaro bog'liqligini talqin etishligi orqali belgilanishi muhim ahamiyatga ega.

Ammo, shuni aytib o'tish kerakki, rus olimlaridan R.G.Popova, I.N.Samonova va I.I.Dobroserdovalar o'z navbatida foydani ilmiy abstraksiya sifatida qarab, YA'IM, qiymat va qo'shimcha qiymatni shakllantirish va foydalanish yuzasidan vujudga keladigan ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettirishini e'tirof etishadi <sup>[24]</sup>. Foyda o'z tabiatiga ko'ra qo'shilgan qiymat shaklidir. Shunday ekan, o'rni kelganda foydani soliqqa tortish yoki soliq obyekt sifatida shakllantirish va tartibga solish zarurdir. Buning sababi foydani takror ishlab chiqarishning turli fazalarida iqtisodiy munosabatlarning tashkil etilishi, foydani qiymatdan, qiymatni esa narxdan farq qilish, foydaning markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan pul mablag'larini tashkil etishi, barcha korxonalarining foyda bilan ishlashini ta'minlash, soliq tizimida turli ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarni tartibga solib turuvchi vosita sifatida foydalanishi bo'lib hisoblanadi.

Umuman olganda, foyda solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati quyidagi u bilan bog'liq moliyaviy resurslar harakatlar xususiyatlarini keltirib o'tish joiz:

1. Barcha soliq'larga xos xususiyat sifatida foyda solig'i bo'yicha ham to'lovchi o'z foydasidan soliqni davlat budjetiga to'lagan holda uning o'rniga hech qanday moddiy ko'rinishda naf olmaydi. Balki qonun yo'li bilan belgilab qo'yilgan miqdorda va muddatda hisoblangan foyda solig'ini o'tkazadi. Bu xizmat uchun to'lov, ruxsatnoma (litsenziya) va boshqa shunga o'xshash to'lovlardan farq qiladi.
2. Foyda solig'ining optimal stavkasi belgilanishi va ma'lum bir jamg'armaga kelib tushishi ta'minlanadi. Bu davlat budjetining kerakli miqdorda to'ldirilishi va soliq to'lovchilar manfaatlariga mos holda undirishi bilan izohlanadi.

Ta'kidlanishicha, to'g'ri soliq miqdorining yuqori bo'lishi iqtisodiyotning bir tekisda barqaror rivojlanishidan darak beradi <sup>[25]</sup>. Bunday holning qayd etilishi to'g'ri soliqlar tarkibida foyda solig'i asosiy o'rinni egallashidan yana bir bor dalolat beradi.

Foyda solig'i mohiyatini shu tartibda yoritish ekanmiz, uni foyda solig'i doirasidagi munosabatlar nuqtayi nazardan o'rganish muhimdir. Foyda solig'i o'z mohiyatiga ko'ra davlat budjeti va xo'jalik subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Foyda solig'ining iqtisodiy mohiyatini ochib berishda, uni qat'iy, doimiy takrorlanib turadigan voqelik deb qarash zarur. Chunonchi, foyda solig'i – bu moliyaviy kategoriyadir. Foyda solig'i doimiy, qaytarilib turadigan moliyaviy, ya'ni pul munosabatlaridir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, foyda solig'i hamma pul munosabatlarini emas, balki soliq obyekt bo'lmish foyda (daromad)ni taqsimlash, qayta taqsimlashdagi pul munosabatlarini ifodalaydi.

Foyda solig'ining mohiyatini ochishda, eng avvalo, uning majburiy to'lov xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatib o'tish va shu orqali uning mazmunini tadqiq qilish zarur. To'g'ri, foyda solig'i munosabatlarida majburiylik mavjud, bu majburiylik demokratiyaning oliy timsoli bo'lmish parlament qarori, ya'ni qonun bilan kiritiladi, davlatning qattiq talabi e'tiborga olinadi. Demak, foyda solig'idagi majburiylik huquqiy demokratik meyorlar asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan kiritiladi.

Qolaversa, foyda solig'i mazmuni ostida uzoq muddatga mo'ljallangan majburiy pul harakatiga mansub munosabatlar yotadi.


Foydani solig'i obyektini sifatida hayotga tatbiq etish, uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo, foyda va unga tegishli bo'lgan meyorlar, uning iqtisodiy chegarasiga aniqlik kiritish zarur bo'ladi. Ana shu vaziyat 1992-2020 yillar davomida foydani aniqlash va uni soliq obyektiga mos keluvchi iqtisodiy chegarasini aniqlash bilan bog'liq murakkab usullarni qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish va amalda foydalanish bilan xarakterlanadi.

A.Y. Ilinning fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, foyda solig'i davlatning moliyaviy jarayonlar rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega soliqlardan biri hisoblanadi [26].

Tadbirkorlik subyektlari foydani qo'lga kiritgach qanday taqsimlaydi, qanchasi uning daromadi bo'lib qoladi, bu tadbirkor xohishi yoki uning qarori bilan amalga oshiriladi. Shu bois foyda nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish, ayniqsa hozirgi sharoitda muhim bo'lib hisoblanadi.

Shu boisdan korxonalar o'zlarining foydasini oshirishga intiladi. Foyda moliyaviy kategoriya sifatida investitsiyalangan kapitaldan olingan daromadga ham o'z aksini topadi.

Hozirgi sharoitda foydani taqsimlashda korxonada ishlab chiqilgan va tasdiqlangan moliya siyosatiga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



1-rasm: Foydani taqsimlash sxemasi\*

\*Muallif ishlanmasi

Foyda barcha korxonalarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarishi muhim moliyaviy manbasi sifatida undan samarali foydalanish tamoyillari asosida ish yuritilishi lozim deb hisoblaymiz. Tijorat asosida faoliyat yurituvchi korxonalar bozor iqtisodiyoti sharoitida strategik va taktik maqsadlarga ega bo'lgan holda, ularning aksariyati foyda olishga intiladi va unga erishishga muvaffaq bo'lishadi.


Foydani oqilona taqsimlashda asosiy e'tibor iste'mol va innovatsion investitsiyaga yo'naltirilgan ulushlarning mutanosibligini optimallashtirishga diqqatni qaratish muhimdir. Bunda foydani taqsimlashning asosiy tamoyillariga rioya qilinishi zarur (2-rasm).

Chunonchi foydani taqsimlash korxonalar rivojlanishining umumiy strategiyasi doirasida quyidagilarni ta'minlashga qaratilishi lozim:

- investitsion resurslar hajmining oshishi;
- bozor qiymatining ko'tarilishi;
- korxonalar ishchi-xodimlarining moddiy qiziqishlari;
- kadrlar tayyorlash;



- xorijiy tajribalarni o'rganish;
- innovatsion va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish;
- eksport salohiyatini oshirish.



2-rasm: Foydani taqsimlashning asosiy tamoyillari\*

\*Muallif ishlanmasi

Har bir korxonalar qabul qilingan qarorga muvofiq foydani taqsimlash yo'nalishlarini belgilaydi. Foydani taqsimlashda quyidagi holatlar muhim rol o'ynaydi:

- korxonalar tashkiliy-huquqiy shakli;
- amaldagi qonunchilik: foyda faqat rahbarning qaroriga binoan emas, balki ta'assischilar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan taqsimlanishi lozimligi;
- tasdiqlangan foydalar manzilli ishlatilishini belgilovchi biznes-reja.

Unga ko'ra foydalar boshqarishda korxonalar taalluqli axborotlarni shakllantirish lozim bo'ladi. Bu faoliyatni to'g'ri tashkil etish, muqobil moliyaviy qarorlarni qabul qilish, korxonalar rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning yanada chuqurlashuvi, jahon bozorida globallashtirishning kuchayishi moliyaviy hisobot va uning ma'lumotlariga yangicha talablarni qo'yimoqda. Bu esa foydalar shakllanishi va taqsimlanishi xususidagi ma'lumot olish imkoniyatlarini oshirishni taqozo etmoqda.

Ma'lumotlar bazasini kengaytirish va ta'minlash korxonalar faoliyatining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Xo'jalik faoliyati natijasida olingan foyda faoliyat yo'nalishlari mohiyatini ochib berishi kerak, aks holda bunday ma'lumot boshqaruv qarorlarini qabul qilishda xato fikr uyg'otishi mumkin.

Shu bois ham bizning nazarimizda, foydalar taqsimlash xususidagi ma'lumotlarni shakllantirishda uslubiy muammolar ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, foydalar taqsimlash yo'nalishlarini to'g'ri belgilash, bu xususidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va aniq aks ettirish, ularni moliyaviy hisobotda oshkor etishdagi kamchiliklar ayni kunda hal qilinishi dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Mazkur muammolarni hal qilishda, avvalo, moliyaviy natijalar konsepsiyasini ishlab chiqish, moliyaviy natijalar xususidagi axborotdan foydalanuvchilarning qiziqish doirasini to'g'ri belgilashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Iqtisodiy modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar konsepsiyasi o'zida keng ma'noni qamrab oladi. Bu esa, o'z navbatida, moliyaviy natijalar hisobida hal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarni qo'yadi. Shuni ta'kidlash joizki, meyoriy hujjatlar moliyaviy natijalar konsepsiyasini amaliyotga tatbiq etishga zamin yaratishi mumkin.

Shunday qilib, foyda iqtisodiy kategoriya sifatida keng tushuncha bo'lib, uning mazmunini tushunish, avvalo, foydalar manzilli foydalanuvchining maqsad va vazifalariga bog'liqdir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Foydalar soliqqa tortish mexanizmi qaysi bir tarmoq bo'lmasin, soliq siyosati qoidalariga, soliq tamoyillariga amal qilgan holda ularning rivojlanishi uchun o'z ta'sirini ko'rsata olishi lozim. Agarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda foydalar soliqqa tortish mexanizmi elementlari o'zlashtirilsa, unda uni tartibga keltirish (turli matematik



hisob-kitoblardan foydalangan holda), soliq elementlari o'rtasida bog'liqlikni maqbullashtirish yoki ularni soliq elementlari tarkibidan chiqarib o'rniga yangi elementni kiritish orqali qo'yilgan maqsadga erishishning shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishi zarur.

Yuridik shaxslar foydasini soliqqa tortishda korxonalar faoliyatini rag'batlantiruvchi siyosat olib borilayotganligiga qaramay, qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati biz ko'zlagan foyda keltiruvchi darajada ko'tarilmagan. Ularning aksariyati, bir tomondan, mavsumiy xususiyati bilan ajralib kelayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan bir kun hisobidan to'liq quvvatda ishlamasligi, ular faoliyatini yuqori rentabellik darajaga ko'targani yo'q. Bu shundan dalolat beradiki, yirik korxonalar aktivligi yuqori bo'lganligi oqibatida juda yuqori foyda solig'i stavkasining salbiy ta'siri bir qancha davr o'tganidan so'ng subyektlar faoliyati samaradorligiga aks ta'sir etuvchi vosita sifatida yuzaga chiqa boshlaydi.

Foydani soliqqa tortishda innovatsion yondoshuv, uni takomillashtirish strategiyasi moliyaviy mexanizmini tartibga solishni ta'minlashi zarur. Bu orqali korxonalar foydasini soliqqa tortish elementlarini, ya'ni soliq stavkasi, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, soliq to'lash muddatlari kabilar o'rtasida uzviy bog'liqlikni optimal chegaralarda saqlanishiga imkoniyatlar yaratiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Лабынцев Н.Т., Цепилова Е.С. Исследование взаимосвязи бухгалтерского (финансового) и налогового учёта прибыли в России и за рубежом. //Проблемы экономики. 2013. №3. – с. 8.
2. Гомозов В.В., Зарюгина А.С. Угрозы экономической безопасности России и пути их решения. //Экономическая безопасность личности, общества, государства: проблемы и пути обеспечения. – СПб: 2019. – с. 450.
3. Naydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.
4. Hicks J. R. The theory of uncertainty and profit //Economica. – 1931. – №. 32. – С. 170-189.
5. Алиева С.С. Совершенствование формирования и распределения прибыли предприятий в условиях модернизации экономики. (на примере предприятий Самаркандской области). Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – Т.: БФА, 2011. – с. 9-10.
6. Мануйленко В.В., Садовская Т.А. Экономическая сущность, виды и функции прибыли хозяйствующего субъекта: современный аспект. //Финансовая аналитика: проблемы и решения, 2012. №33. – с. 26.
7. Needles В.Е., Anderson Н.Р., Caldwell J.С. The basic principles of accounting. //Publishing House Arc. – 2000.
8. Покропивный С.В. Экономика предприятия: Учебник. – Київ: КНЕУ, 2017. – 608 с.
9. Поддериогин А.М. Финансы предприятий. Учебник. 3-е изд., перераб. и доп. – Київ: КНЕУ, 2013. – 460 с.
10. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – М.: ИНФРА-М, 2016. – 244 с.
11. Юркова Т.И., Юрков С.В. Экономика предприятий. Учеб.пос. – М.: ГАЦМиЗ, 2013. – с. 41.
12. Салов А.И. Экономика. Краткий курс лекций. 3-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2016. – с. 197.
13. Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовый анализ. Управление финансами. Учеб. пособие для вузов – 2-е изд., перераб. и доп. –М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2007 – с.159
14. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Курс лекций. – М.: ИНФРА-М, 1999. – с. 72.
15. Донцов Р. Д. Экономическая сущность прибыли организации // Электронный сборник трудов молодых специалистов Полоцкого Государственного университета. Выпуск 31 (101). Новополоцк: ПГУ, 2020. – С. 149.
16. Zaripov X.B. Soliqlarning korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholash yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.avtoref. – T.: 2020. – 14-b.
17. Vahid N., Reza Dehghanpour M., Nasirizadeh H. Comparison between accounting profit and economic profit and its effect on optimal point of production. //European Online Journal of Natural and Social Sciences. 2013. T.2. – №3. – pp. 493-499.
18. Raximov M.Y., Kalandarova N.N. Moliyaviy tahlil. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 330 b.
19. Глухов В.В. Менеджмент: для экономических специальностей. – СПб: Питер Пресс, 2017. – С. 600.
20. Букач Б.А. Проблемы оценки эффективности в теории налогообложения. //Экономика и предпринимательство. – М.: 2015. №5-2. – с. 192.
21. Shapiro В.Р., Cohen N.M., Naughton M. Leviticus on How to Make and Distribute Profit. //Society and Business Review, Vol. 8. №1. – pp. 45-54
22. Malani A., Posner E.A. The Case for For-Profit Charities. //Virginia Law Review. 2007. – pp. 2017-2067
23. Navarra C., Tortia E. Employer Moral Hazard, Wage Rigidity, and Worker Cooperatives: A Theoretical Appraisal. // Journal of Economics Issues. 2014. T. 48. №3. – pp. 707-726.
24. Попова Р.Г., Самонова И.Н., Добросердова И.И. Финансы предприятий. – СПб: Питер, 2005. – С. 47.
25. Tashmuradov T. Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. – T.: Bilim, 2004. – 63 b.
26. Ильин А.Ю. Налог на прибыль организаций: актуальные вопросы налогообложения. – М.: Проспект, 2021. – с. 4.

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

